

NYURENBERG SUDIDA TARJIMONLAR FAOLIYATI

Shonazarova Dilnoza Dilshod qizi

d.shonazarova@nordicuniversity.org

ORCID ID: 0000-0003-1482-5479

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Nyurenberg sudi jarayonida tarjimonlar faoliyati haqida soʻz yuritiladi. Sud tashkillashtirilishi va bu jarayonda tarjimonlar duch kelgan qiyinchiliklar, ular yoʻl qoʻygan xatolar va erishgan yutuqlari haqida qisqacha bayon qilinadi. Sud jarayonida tarjimonlar faoliyati bilan bogʻliq baʼzi faktlar va tarjimon guruhlari, ularga yuklatilgan tarjima, qayd qilish, stenografiya kabi vazifalar haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: *Nyurenberg sudi, tarjimon, ogʻzaki tarjima, sinxron tarjima, qayd qilish, nemis, ingliz, rus va fransuz tillari, stenografiya, stenogramma, tarjimon guruhlari, yordamchi tarjimonlar.*

KIRISH

Nyurenberg sudi bu ikkinchi jahon urushidan soʻng natsist jinoyatchilari ustidan olib borilgan sud jarayoni hisoblanib, u 1945-yil 20-noyabrdan 1946-yil 1-oktyabrgacha, qariyb bir yilga yaqin davom etgan. Bu xalqaro sud boʻlgani uchun unda turli tillarda soʻzlashuvchi sudyalalar, tergovchilar, advokatlar, huquqshunoslar, jinoyatchilar va guvohlar ishtirok etishgan. Shuning uchun ham ushbu jarayonga keng miqyosdagi tarjimonlarni qamrab olishga zaruriyat tugʻilgan. Sud jarayonida, avvaliga ingliz-nemis tillari juftligidan foydalanishga harakat qilingan, undan soʻng esa boshqa til tarjimonlari ham qidirila boshlangan. Dastlab haqiqiy tarjimonlar soni juda kam boʻlganligi va ularda ham yetarli malaka mavjud boʻlmagani uchun tarjimonlar guruhi, asosan, tilshunoslar va til oʻqituvchilaridan saralab olingan va ular tarjima jarayoniga maxsus tayyorlangan. Sud jarayonida, asosan, nemis, rus, ingliz va fransuz tillaridan foydalanilgan. Sovet ittifoqi tarjimoni Ye. A. Gofman sud jarayoni haqida quyidagilarni eslaydi: “Xalqaro Harbiy Tribunalda qatnashgan har bir davlat oʻz ona tiliga tarjimini taʼminlagan. Nemis tiliga tarjimini esa amerikaliklar qilishgan. Alohida oʻrnatilgan toʻrtta kabinaning har birida tarjima qilinayotgan tillar soniga mos uchtdan tarjimon oʻtirar edi. Masalan, men oʻtirgan kabinada ingliz, nemis va fransuz tillaridan tarjima qiladigan tarjimonlar bor edi. Sudlanuvchilar oʻrindiqlarining orqasida oyna bilan ajratilgan kabina ichidagi stolning ustida koʻchma mikrofon turardi. Tarjimon soʻzlovchi qaysi tilda gapirishiga qarab mikrofon qoʻldan qoʻlga oʻtardi. Shunday hollar ham boʻlgan-ki, fransuz tili tarjimoni olti soatlab bir ogʻiz ham tarjima qilmagan. Biroq sudlanuvchilar va ularning himoyachilari gapirganda nemis tili tarjimonlari “ter toʻkishardi”. Baʼzan ular bir kishini soʻroq qilish vaqtida (1,5 soat) tanaffussiz tarjima qilishga majbur boʻlishgan, hamkasblaridan birortasi kasalligi tufayli safdan chiqishga majbur boʻlganda esa, uch mahallab ham ishlashgan. Sud majlisining tanaffuslari jarayonida tarjimonlar navbat almashishgan. Sud zalida oʻtirganlarning hammasi tarjimini har bir til alohida oʻrnatilgan kanalga maxsus tugmani bosish bilan quloqchin orqali eshitishgan. Bu jarayondan bexabar inson sud zaliga kirib qolsa, kabinalardan chiqqan ovozlardan hayratga tushardi.” Sovet tarjimonlarining ishini Xalqaro harbiy tribunalda Sovet Ittifoqi delegatsiya aʼzosi A.I. Poltorak quyidagicha tasvirlaydi: “Sudlanuvchilarning oʻrindiqlari yonida toʻrtta kabina oʻrnatilgan boʻlib, ularning har birida

uchtadan tarjimonlar guruhi o'tirgan. Bunday guruhning har birida uchta tarjimon uch tildan to'rtinchi til bo'lgan o'zining ona tiliga tarjima qilib turgan". Demak, Sovet ittifoqidagi tarjimonlar guruhi ingliz, fransuz va nemis tili bo'yicha mutaxassislardan tashkil topgan va ular hammasi bir jamoada bo'lib, rus tiliga tarjima qilishgan.

Shunday qilib, Nyurenberg tarjimonlari 4 guruhdan tashkil topgan:

1. Sinxron tarjimonlar (36 ta);
2. Yordamchi ketma-ket tarjima qiluvchi tarjimonlar (12 ta);
3. Yozma tarjimonlar (Har biri 20-25 odamdan tashkil topgan 8 ta bo'limga ajratilgan. Shulardan 15-18 tasi tarjima, qolgan 8 tasi esa tarjima tahriri bilan shug'ullangan.);
4. Stenografistlar (har bir til uchun 12 tadan odam);
5. Stenogramma muharrirlari (100 dan ortiq);

Mazkur jarayonning texnik ta'minotiga javobgarlikni Xalqaro biznes mashinalari korporatsiyasi (IBM-International Business Machines Corporation) kompaniyasi o'z zimmasiga olgan, lekin ularning shartiga ko'ra uskunalarni yetkazish va o'rnatish bo'yicha sarf-xarajatlarga AQSH hukumati javobgar bo'lishi kerak edi. Tarjima jarayoniga 1931-yilda Millatlar Ligasida foydalanilgan "Filene-Finlay" tizimi asos qilib olgan. Mazkur tizimda nutq oldindan tarjima qilinib, sinxron ravishda turli tillarga o'qib berilganligi uchun ishning bu asnoda borishi Nyurenberg sudi ehtiyojlariga mos kelmas edi. Muhokama va tajriba jarayonida ratsionalroq usulni tanlangan. Suddagi jami 36 tarjimon 12 tadan qilib 3 ta ya'ni, "A", "B" va "D" guruhlariga bo'lingan. Ertalab "A" guruhi faoliyatini boshlab, 85 daqiqa davomida tarjima qilgan, bu paytda "B" guruh ularning tarjimasini zalda o'tirib quloqchinlar orqali tinglab, kuzatib borgan. "A" guruhdagi 12 ta tarjimon 4 ta kabinada 3 tadan bo'lib o'tirishgan. Soat 13.00 da sudda tanaffus e'lon qilingandan keyin, "B" guruh ish faoliyatini boshlagan. Lekin orada "A" guruhidagi tarjimonlar bilan muammo chiqib qolgan hollarda "B" guruh tarjimonlari ularning o'rniga kelgan. "D" guruh tarjimonlari esa o'sha kuni dam olgan, lekin ba'zida ular yozma tarjima, og'zaki tarjima, stenografiya va hujjat ishlari bilan band bo'lgan. Jarayon shu tartibda davom etavergan.

Shuningdek, Nyurenberg jarayonidagi tarjimonlar jamoasi faqat shu bilan chegaralanmagan. Ularning zimmasiga sud jarayoni yozib olingan tasmalardagi yozuvlarni tarjima stenografiyasi bilan qiyoslab tahrir qilish vazifasi ham yuklatilgan. Magnit tasmada rus tilidagi nutq ingliz, fransuz va nemis tildagi gaplar bilan galma-gal kelgan. Bundan tashqari, har kuni sovet delegatsiyasiga kelgan nemis, ingliz va fransuz tillaridagi ko'plab hujjatlarni tarjima qilish ham tarjimonlarning vazifasi hisoblangan. A. Poltorak sovet tarjimonlari ish jarayoni haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Tarjimonlarning vazifasi shunchalik ko'p edi-ki, ularning malakasi nafaqat yetarli bo'lgan (ularning ko'pchiligi maxsus lisoniy ta'lim olishgan), balki, yanada ahamiyatlisi, ular yosh va jismonan baquvvat ham bo'lgan, aks holda bunday mashaqqatli ishni amalga oshirishni uddalay olishmasdi. Bizning tarjimonlarimiz son jihatidan boshqa mamlakatlarnikidan kamroq edi. Ammo, ular qilishi kerak bo'lgan ish tribunalda qatnashgan boshqa hamkasblarinikidan ziyodroq bo'lgan."

Sud jarayoni daqiqasiga 60 ta so'z tezligida bo'lgan. Albatta, bu juda tez emas, biroq, ketma-ket tarjima tezligi bilan qiyoslaganda, to'rt baravar tezroq. Agar so'zga chiqqan odam juda tez gapirishni boshlasa, sinxron tarjimonlar sariq chiroqni yoqishgan. Qizil chiroq yoqilgani tarjimonlar nutq so'zlayotgan insondan to'xtab so'zlarini yana bir bor takrorlashini so'rashganini anglatgan. Z. Ramlarning ta'kidlashicha bunday hol kamdan-kam sodir bo'lgan va bunga sabab faqat jihozlarning ishlamay qolishi yoki inson omili bo'lgan. Agar shunday hol kuzatilsa, qisqa tanaffus e'lon qilingan.

Nyurenberg sudi jarayonida xatolar ham uchrab turgan, masalan, Tatyana Ruzskaya o‘z xatosini eslab quyidagilarni aytadi: “Bir marta juda kulgili xatoga yo‘l qo‘ygan edim. Shu kuni inglizlar tomonidan so‘zga chiqqan guvoh fashistlarning oddiy fuqarolar va sanitar kemalarini qanchalik shafqatsiz havodan bombardimon qilgani haqida gapirib berayotgandi. Men esa tarjima qilayotgandim: “Shu onda biz suvda bir bolani ko‘rib qoldik va uni suvdan tortib oldik”, - men notiq ketidan tarjima qilib boraverdim – “yaxshilab yuvdik...” shu onda men dahshat bilan quyidagi so‘zlarni eshitib qulog‘imga ishonmadim: “...so‘ng ustida Glazgodagi port nomini ko‘rdik”. Shunda darrov hujjatlar turgan papkani (ba‘zan tarjima jarayonidan oldin bizga raqamli hujjatlar solingan papka berishar edi) ko‘zdan kechirib, hammasini tushundim. Matnda “boy”-bola emas, “buoy”-tirgak so‘zi turar edi. Bu so‘zning talaffuzi “boy” (o‘g‘il bola) so‘zi bilan bir xil bo‘lgani uchun so‘zlarni adashtirgan edim. Qilgan xatoyimni hech kim sezmadim, so‘ng faqat stenogrammadagi tarjimini o‘zgartirib qo‘ydim, albatta”. Nyurenberg sudi 1946-yil 1-oktyabrda tugaganiga qaramay, tarjimonlar undan so‘ng ham ish faoliyatini yakunlamagan. Suddan keyin tarjimonlar general, shifokor, ikkitadan muxbir bilan bir qatorda jinoyatchilarni qatl qilish jarayonida qatnashib, ularning so‘nggi so‘zlarini tarjima qilib turishgan. “Sud jarayoni tugasa-da, biz hali ham ishimizni tugatmagandik. Birinchi Nyurenbergda, keyin esa, Leyptsigda stenogrammalarni ko‘rib chiqar edik. Sud 1947-yildagina nihoyasiga yetdi. Shu bilan oradan besh yil o‘tdi. Shu vaqt mobaynida Sovet Ittifoqida sinxron tarjima boshqa qo‘llanilmadi. Bizga kelgan xabarlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotida sinxron tarjima kengashlarda qo‘llaniladigan tarjimaning asosiy turiga aylandi deb aytili.”

Shunday qilib, Nyurenberg sudidan so‘ng, sinxron tarjima jahon miqyosida barcha tashkilotlarda, xalqaro konferensiya, uchrashuv, yig‘ilish va majlislarda foydalaniladigan bo‘ldi. Bugungi kunda, ayniqsa, BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) da ish jarayoni sinxron tarjimonlarsiz o‘tmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Nyurenberg sudi tarjimonlar uchun va tarjimaning og‘zaki turi uchun haqiqiy tajriba maktabi bo‘lib xizmat qilgan. Bu jarayonda bugungi kunda xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan sinxron tarjima vujudga kelgan. Shuningdek, sud jarayonida tarjimonlar nafaqat malakalarini oshirishgan, balki qiyin sharoitlarda, uzoq muddat, bosim ostida ishlagan holda haqiqiy ish sharoitiga tayyorlanishgan va toblanishgan desak ham bo‘ladi. Chunki yuqorida ta‘kidlanganidek, bu jarayonda yutuqlarga ham erishilgan, ba‘zi xatolarga ham yo‘l qo‘yilgan. Nyurenberg sudini tarjimonlarsiz tasavvur qilishning imkoni yo‘q, nazarimda. Zero, ular nafaqat tarjima, balki stenografiya ishlarini ham bajarib berishgan. Sud tarjimonlarni faqatgina bir yil davomiyligida emas, undan keyin ancha paytgacha ham o‘z qamroviga olgan va ularni ish bilan band qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A. Poltorak. The Nuremberg Epilogue. - 1971, p 23.
2. Shonazarova, D. (2024). O‘zbekistonda ziyorat turizmini shakllantirishning muhim omillari. *Nordic_Press*, 3(0003).
3. Shonazarova, D. (2024). Simultaneous interpretation and required competencies for choosing the profession. *Nordic_Press*, 3(0003).
4. Shonazarova, D. (2025). INGLIZ-O‘ZBEK TILLARI SINXRON TARJIMASIDA SIYOSIY-DIPLOMATIK NUTQNING QIYOSIY TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 390-393.

5. Shonazarova, D. (2024). Yuridik matnlar tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularning yechimi. *Nordic_Press*, 3(0003).
6. Shonazarova, D. (2024). Simultaneous interpretation and required competencies for choosing the profession. *Nordic_Press*, 3(0003).
7. Shonazarova, D. (2024). ChatGPT and its challenges working with idioms and writing systems in Uzbek language. *Nordic_Press*, 3(0003).
8. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMA VA UNING KELIB CHIQUISHI BO‘YICHA NAZARIYALAR. *Nordic_Press*, 3(0003).
9. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMON KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI. *Nordic_Press*, 3(0003).
10. Shonazarova, D. SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI. *UZBEKISTAN*, 43.
11. Siegfried Ramler. The Origin and Challenges of Simultaneous Interpretation: The Nuremberg Trial Experience. - *Interpretation Studies*, No. 7, December 2007, p 10.
12. Азаматова, Н. Б. (2011). СТИЛЬ ЛЕКТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРОЦЕСС РАСКРЫТИЯ ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ ЛЕКТОРА. *Вопросы гуманитарных наук*, (5), 48-51.
13. Гофман, Э. К истории синхронного перевода. – Тетради переводчика 1, 1963. Ст 21-22.
14. Калонова, З. А. (2023). ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 449-452.
15. Нарбекова, З. (2024). Педагогические технологии и методы чтения и понимания немецкого языка. In *Probleme de filologie: aspecte teoretice și practice* (pp. 79-82).
16. Р.А. Матасов. Синхронный перевод на нюрнбергском процессе. - Вестник Московского университета. Сер. 22. Теория перевода, 2008. № 2. – ст 21.
17. Раметова, Б. М. (2023, February). ФОНЕТИКО-ФОНОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ В РУССКОЙ РЕЧИ ТЮРКОЯЗЫЧНОГО ИНДИВИДА. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 2, pp. 383-385).
18. <https://world-war.ru/315-dnej-v-nyurnberge/>
19. <https://encyclopedia.ushmm.org/content/en/article/the-nuremberg-courtroom>
20. <https://blog.nationalarchives.gov.uk/death-hanging-nuremberg-trials/>